ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 12

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.12.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)*
O‘ral Xoliyorov, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)*
Olmos Ulviy Binnatova, *f.f.d., professor (Ozarbayjon)*
Karl Rayxl, *f.f.d., professor (Germaniya)*
Vali Savash yelok, *f.f.d., professor (Turkiya)*
Dorota Silviya, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)*
Muslihiddin Muhiddinov, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Ibodulla Mirzayev, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Abdi Mamatov *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Suyun Karimov *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Muhammadxon Hakimov, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Nafas Shodmonov *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Dilmurod Quronov, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Murodqosim Abdiyev, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Baxtiyor Mengliyev, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Normat Yo‘ldoshev, *f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)*
Abdulla Xudoyqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Bobonazar Murtazayev, *f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)*
Asqar Eshmo‘minov, *f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)*
Obidjon Shofiyev, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)*
Zafar Umurqulov, *f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)*
Nurali Amonturdiyev, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Hakim Ahmedov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Ahad Shukurov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Eshnazar Jabborov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Abdumurod Arslonov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Sirojiddin Turdimurodov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Umida Raximova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Gulchehra Begmatova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Nargis Qurbonazarova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Muyassar Xolova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Shoira Omonturdiyeva, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Sherzod Turdiqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Zaynura Qodirova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Humayun Nadim Muhammad, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Dilrabo Ergasheva, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.12.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100
Цена договорная
Заказ: 155
Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул.
Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, *доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)*
Шохиста Махмараимова, *доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)*
Урал Холияров, *ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Олмос Улвий Биннатова, *д.ф.н., профессор (Азербайджан)*
Карл Райхл, *д.ф.н., профессор (Германия)*
Вали Саваш Елок, *д.ф.н., профессор (Турция)*
Дорота Сильвия, *PhD, доцент (Польша)*
Муслихиддин Мухиддинов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Ибодулла Мирзаев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Абди Маматов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Суюн Каримов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мухаммадхон Хакимов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нафас Шодмонов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Дилмурод Куронов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мурадкасим Абдиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Бахтиёр Менглиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нормат Юлдашев, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Абдулла Худайкулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Бобоназар Муртазаев, *ф.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Аскар Эшмуминов, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Обиджон Шофиев, *д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Зафар Умуркулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Нурали Амонтурдиев, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хаким Ахмедов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Ахад Шукуров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Эшназар Джаббаров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Абдумурод Арслонов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Сирожиддин Турдимуродов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Умида Рахимова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Гульчехра Бегматова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Наргис Курбаназарова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Муяссар Холова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шаира Амонтурдиева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шерзад Турдикулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Зайнура Кадирова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хумаюн Надим Мухаммад, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Дильрабо Эргашева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President`s Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.12.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94
Offset printing. Offset paper
Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155

Printed at the
«Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)*
Shohista Makhmaraimova, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)*
Ural Kholiyorov, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Olmos Ulviy Binnatova, *doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)*
Karl Rayxl, *doct.of philol. sciences, professor (Germany)*
Vali Salvash Elok, *doct. of philol. sciences, professor (Turkey)*
Dorota Silvia, *PhD, associate professor (Poland)*
Muslihiddin Mukhiddinov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Ibodulla Mirzaev, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Abdi Mmatov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Suyun Karimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muhammadkhon Khakimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Nafas Shodmonov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Dilmurod Kuronov, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muradkasim Abdiyev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Bakhtiyor Mengliev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Normat Yuldashev, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Abdulla Khudaykulov, *PhD (Uzbekistan)*
Bobonazar Murtazaev, *cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Askar Eshmuminov, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Obidjon Shofiev, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Zafar Umurkulov, *PhD (Uzbekistan)*
Nurali Amonturdiev, *PhD (Uzbekistan)*
Hakim Akhmedov, *PhD (Uzbekistan)*
Ahad Shukurov, *PhD (Uzbekistan)*
Eshnazar Jabbarov, *PhD (Uzbekistan)*
Abdumurod Arslonov, *PhD (Uzbekistan)*
Sirojiddin Turdimurodov, *PhD (Uzbekistan)*
Umida Rakhimova, *PhD (Uzbekistan)*
Gulchekhra Begmatova, *PhD (Uzbekistan)*
Nargis Kurbanazarova, *PhD (Uzbekistan)*
Muyassar Kholova, *PhD (Uzbekistan)*
Shoira Omonturdiyeva, *PhD (Uzbekistan)*
Sherzod Turdikulov, *PhD (Uzbekistan)*
Zaynura Kadirova, *PhD (Uzbekistan)*
Humayun Nadim Muhammad, *PhD (Uzbekistan)*
Dilrabo Ergashova, *PhD (Uzbekistan)*

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

JO‘RAYEVA BIBISH MUXSINOVNA,
TO‘XTAYEVA DILAFRUZ ASHUROVNA
Ekspressivlik va intensivlik munosabati.....7

ЁҚУБОВ ШАРИФ
Дарбанд, Темир дарвоза, Оққўтал ва
“Темирдан ясалган дарвоза” атамалари таҳлили 11

SHUKUROV AHAD AHMADOVICH
Tarixiylikni ifodalovchi eskirgan so‘zlar 15

AMONTURDIYEV NURALI RASHIDOVICH
O‘zbek tili izohli lug‘atlarida etnografizmlar aksi 18

RAXIMOVA UMIDA DJUMAYEVNA
Hamid Olimjon ijodida so‘z sehri 23

TURDIQULOV SHERZOD DUMINOVCH
Onomastik ko‘lamda teotoponimlar tadqiqi.....26

ABDURAXMANOV SHAVKATJON ASHUROVICH
Funksional sintaksis haqida mulohazalar.....29

VAFOYEVA MUXAYYO YULDOSHEVNA
Sinonimlarda miqdor o‘zgarishlarining ayrim ko‘rinishlari xususida.....32

TUYCHIYEVA OYDIN SAYFULLAYEVNA
Fors tilida shart-istak mayli qo‘llanilishining o‘ziga xos xususiyatlari.....36

SHAYMARDANOVA AZIZA RAIMJANOVNA
Intralingval lakunalarning lisoniy tabiati 40

DUSNAZAROVA MAVJUDA ILYAMONOVNA
Nikoh marosimlarida milliy o‘zlikning aks etishi.....46

KADIROVA SAIDA MAXSUDOVNA
Badiiy tasvir va ifoda vositalarining adabiyotdagi roli 49

МУНДАРИЖА

TO‘YCHIYEVA ZULAYHO HAMROQO‘LOVNA
Islomiy paremalogik religionimlar 53

ABDUVALIYEVA KAMOLA SHAVKAT QIZI
“Shajarayi turk” asaridagi etnonimlarning hozirgi
O‘zbekiston hududida etnotoponim sifatida uchrashi 56

RAHMATULLOYEV AHTAM A’ZAM O‘G‘LI
Fors tilida otning semantik tasnifi 60

HAMDAMOVA NASIBA TO‘RABEKOVNA
Diniy leksikaning semantik xususiyatlari
(ekzotik leksika, frazeologizmlar, paremiologik birliklar misolida).....64

YO‘LDOSHEVA NARGIZA
“Alpomish” dostonida mavjud fonetik dialektizmlar.....68

ВАПАЕВА АНАХОН НАСУРИЛЛАЕВНА
Молодёжный сленг в вузах: дешифровка
(на примере студентов Университета Маъмуна) 71

ИСМАИЛОВА ФЕРУЗА ИСМАИЛОВНА
Народные пословицы в произведениях русских писателей.....75

OBLOQULOVA ZILOLA ULUG‘BEKOVNA
O‘zbek tilida taqinchoq nomlari semantikasi.....79

ADABIYOTSHUNOSLIK

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Жанровое многообразие циклических произведений.....83

TA’LIM

XOJIYEVA IRODA ZOKIRJON QIZI
Ta’lim tojik tilida olib boriladigan umumta’lim maktablarda o‘zbek tili
(davlat tili) fanini o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari 90

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK TILI IZOHLI LUG‘ATLARIDA ETNOGRAFIZMLAR AKSI

Amonturdiyev Nurali Rashidovich,
Termiz davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

O‘zbek tili leksikografiyasi so‘nggi yillarda salmoqli yutuqlarga erishdi. Xalqimiz turmush tarzi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy sohalarga aloqador atamalar lingvistik tadqiq qilinib, ko‘plab lug‘atlar yaratildi. Leksikografiya sohasidagi yutuqlar va amaliy ishlarning debochasi o‘laroq, ikki va besh jildli o‘zbek tilining izohli lug‘atlari yaratildi.

O‘zbek tilining ikki jildli izohli lug‘ati XX asr o‘zbek tilshunosligining eng katta yutug‘i sanaladi. Unda o‘zbek tilining leksik tarkibi ilk bora tartibga solindi, lug‘atlarda qanday leksik qatlamlar aks etishi me’yorlashtirildi, izohli lug‘at tuzish tamoyillari amaliy jihatdan qaror topdi, lug‘atchilikning turli sohalariga oid yutuqlar umumlashtirildi[2].

Ikki jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (1981) lingvistik, leksikografik tamoyillar nazariy asoslangan dastlabki lug‘at sifatida xalqimiz etnomadaniy leksik qatlamiga mansub bir talay leksemalarni aks ettirishga harakat qilingan ishdir. Ammo etnografiya, umuman, leksikografiyaga oid ilmiy tadqiqot ishlarining yetarli emasligi, etnografizmlarning leksik-semantik, tematik xususiyatlari ilmiy, nazariy tomondan asoslanmagani izohli lug‘atda etnoleksemalarni to‘liq tasniflash imkonini bermadi.

Ikki jildli izohli lug‘atda **176** ta leksema va birikmalar etnografizm yoki etnografik ma’no ifodalashi ta’kidlangan. Bu lug‘atda berilgan umumiy leksemalarning **0.29 %** ini tashkil etadi, xolos. “Mustaqillikkacha bo‘lgan davrdagi hukmron mafkura talablariga ko‘ra, milliy mentalitetimiz va ming yillik madaniyatimizu ma’naviyatimizning mag‘zi-mohiyatini tayin etadigan juda ko‘p tushunchalarni ifodalaydigan qancha so‘zlarning tilimizdagi faol leksik qatlam tarkibiga kirishiga izn berilmagan edi. Shuning uchun ularga ilgarigi ikki jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (1981) da joy topilmagan edi[3]”.

Istiqlolga erishilgach, fan-texnika taraqqiyoti, ijtimoiy, madaniy, ma’naviy qarashlarning yangilanishi o‘laroq, lug‘at tarkibida ro‘y bergan o‘zgarishlarni aks ettirish tilshunoslar oldiga yangi izohli lug‘at yaratish vazifasini qo‘ydi. Mana shu munosabat bilan yangi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (2006-2008) yaratildi. Lug‘at o‘zbek tilining hozirgi leksik qatlamiga mansub 80 000 (sakson ming) leksema va birikmani qamrab olgan. Ushbu lug‘at o‘zbek leksikografiyasini yangi bosqichga olib chiqdi. Tilimiz, milliy madaniyatimiz bilan aloqador ko‘plab tushunchalar kiritildi. Ikki jildli izohli lug‘atga nisbatan ko‘proq so‘zlikni qamrab oldi.

Yangi lug‘atda so‘zshakllar izohlanishi leksikografiyaning yangi yutuqlariga tayangan holda aks etgan. Ularga misol tariqasida quyidagilarni sanab o‘tish mumkin:

a) bir umumiy lug‘aviy ma’noga ega bo‘lgan so‘z shakllaridan asosiysini berish, qolganlarini esa, ma’noda muayyan siljish, o‘zgarish bo‘lmagan hollarda bermaslik; b) avvalgi lug‘atda “eskirgan”, “diniy”, kabi belgilar ostida berilgan (yoki umuman berilmagan) tarixiy, etnografik, diniy terminlarga yangicha yondashuv; v) o‘zbekcha va umumturkiy leksikadan boshqa (arabcha, forscha, baynalmilal, ruscha va b. tillarga mansub) so‘z va terminlarga mumkin qadar to‘liq etimologik ma’lumot berish kabilar yangi lug‘atning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatadi[4].

Besh jildli izohli lug‘atda etnografik leksemalar umumiy so‘zlikning **0.25 %** ini tashkil etadi. Yangi izohli lug‘at (2006-2008)da **200** ga yaqin leksema va birikmalar etnografik tushuncha ifodalashi ta’kidlab o‘tilgan. Ikki jildli izohli lug‘atda berilgan etnoleksemalarning aksariyati yangi izohli lug‘atda takrorlangan. Shunday bo‘lsa-da, har ikki izohli lug‘atlargagina xos bo‘lgan, ya’ni birida uchrasa, ikkinchisida takror uchramaydigan etnoleksemalar ham mavjud (1-jadval).

[1] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-jild. – M., Rus tili, 1981. – B.554

[2] Қўзиев У. Ўзбек тилидаги изоҳли луғатларда ўзлашма сўзлар: Фил.фан. бўйича фалс.док. (PhD) дис. автореферати. – Фарғона, 2018. – Б. 19.

[3] Маҳмудов Н. Ўзбек тили луғат бойлигининг ривожидаги жараёнлар // “Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари” мавзусидаги республика илмий-назарий конференцияси материаллари. –Тошкент, 2019. – Б. 11.

[4] Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.12-жилд. – Б. 65.

1-jadval. Izohli lug‘atlargagina xos etnografik birliklarning berilishi

Ikki jildli izohli lug‘atga xos etnografik leksemalar	Besh jildli izohli lug‘atga xos etnografik leksemalar
Kir	Badik II
Tanga-sochiq	Darrasoldi
Tutatmoq	Kelinko‘rdi
Chachvon	Ob xudoyi
Chil-chil	Sabzito‘g‘rar
Qora kiymoq	Totem
Sut haqi	Totemizm
	Unashtirish
	Uchoq
	Chukburron
	Yuzko‘rdi
	Qizchiqarar

Besh jildli izohli lug‘atda yangi etnografizmlarni berishda quyidagi usuldan foydalanilgan (2-jadval).

2-jadval. Izohli lug‘atlarda etnografizmlarni berish usullari

№	Izohli lug‘atlarda etnografizmlarni berish usullari	Ikki jildli izohli lug‘at (1981)	Besh jildli izohli lug‘at (2006-2008)
1.	Bosh so‘z sifatida sarlavhaga chiqarilgan etnoleksemalar	42.6 % (75 o‘rin)	47.5 % (95 o‘rin)
2.	Sarlavhaga chiqarilgan polisemantik leksemaning bir yoki undan ortiq ma’nolari etnografik xarakterdagi etnografizmlar	31.8 % (56 o‘rin)	33 % (66 o‘rin)
3.	Birikmali (ko‘p tarkibli) etnografizmlar	23.8 % (42 o‘rin)	17.5 % (35 o‘rin)

Ikki va besh jildli izohli lug‘atlarning bosh so‘zga tuzilgan so‘zlik maqolalari strukturasi ilmiy tahlil qilindi. Izohli lug‘atlarda bosh so‘z sifatida berilgan leksemalar (birikmali, turg‘un iboralar va h.k.)ning qiymati shu so‘zlik uchun tuzilgan lug‘at maqolasining qay darajada ifodalangani bilan belgilanadi. Bosh so‘z anglatgan ma’no (ma’nolar) lug‘at tuzilishida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, lug‘at maqolasining barcha aloqador qism (komponent)lari uzviyligini ma’lum darajada ta’minlab beradi.

Kir (I; 387), **tanga-sochiq** (II; 117), **tutatmoq** (II; 231), **chachvon** (II; 358), **chil-chil** (II; 370), **qora kiymoq** (II; 599), **sut haqi** (II; 692) kabi etnografik leksema va birikmalar ikki jildli izohli lug‘atgagina xos bo‘lib, besh jildli izohli lug‘atda bu etnografizmlarni uchratmaymiz. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan etnografik birliklarning lug‘atda etnografizm sifatida berilmasligi ushbu an’ana, urf-odatlarni bugungi kunda juda tor doirada mavjudligi yoki eskirgan (tarixiy) leksema deya qaralishida deb izohlash mumkin. Biroq bu etnoleksemalar xalqimiz etnomadaniyatining ajralmas bir jarayoni va uning nominativ birligi sifatida leksikonimizda yashab kelmoqda. Binobarin, og‘zaki, ya’ni jonli

muloqotda uchraydigan har qanday leksema, qaysi leksik qatlamga xos bo‘lishidan qat’i nazar, izohli lug‘atda o‘z aksini topishi lozim.

Besh jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham bir qancha etnografik leksema va birikmalar kiritilgan. Albatta, mustaqillik davrida milliy qadriyatlarga e’tibor kuchaydi, diniy, axloqiy, umuman, etnomadaniy merosga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Ushbu o‘zgarishlar qisman bo‘lsa-da lug‘atda ham aks etdi. Ikki jildli izohli lug‘atdan farqli o‘laroq, besh jildli izohli lug‘atda xalqimiz turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlarida ko‘p qo‘llanuvchi quyidagi etnografik urf-odat, marosim nomlari aks ettirildi: **badik II** (I; 135), **darrasoldi** (I; 569), **kelinko‘rdi** (II; 346), **ob xudoyi** (III; 77), **sabzito‘g‘rar** (III; 410), **totem** (IV; 158), **totemizm** (IV; 158), **unashtirish** (IV; 228), **uchoq** (IV; 309), **chukburron** (IV; 515), **yuzko‘rdi** (V; 78), **qizchiqarar** (V; 281) kabi.

Etnografik leksema polisemantik xususiyatga ega bo‘lishi mumkin. Bunda asosiy denotativ ma’no etnografizm ekanini ko‘rsatib turuvchi qisqartma (etn.) belgi bilan berilgan. Ushbu ma’noga aloqador ma’no arab raqami bilan keltirib o‘tilgan: **AZA:** - 1) etn. Ayollarning mayyit chiqqan uyda yig‘i bilan o‘tkazadigan motam marosimi; 2) mayyit chiqqan uydagi motam jarayoni (O‘TIL-5, I; 47).

Izohli lug‘atlarda ko‘p ma’noli leksema va ularning semantik taraqqiyotini ifodalash lug‘atchilikning murakkab vazifalaridan biri hisoblanadi. Dastlabki izohli lug‘atda sarlavhaga chiqarilgan ko‘p ma’noli leksema ifodalagan ma’nolardan biri etnografik ma’no anglatishiga talaygina misollar keltirilgan. Lug‘atda shu yo‘l bilan ifodalangan etnografik ma’no umumiy etnografizmlarning **31.8 %** (56 o‘rin)ini tashkil etadi. Bunda, asosan, bosh so‘z anglatgan ma’no (ma’nolar)dan bittasi yoki bir nechtasi etnografik ma’no ekani ta’kidlab o‘tilgan.

Ikki jildli izohli lug‘atda ikki va undan ortiq etnografik ma’no anglatgan leksemalar juda kamchilikni tashkil etadi.

ChODIR: 1) go‘shanga, chimildiq; 2) ayollar paranji o‘rnida yopinadigan maxsus yopinchiq (O‘TIL-2, II; 376).

OQLIQ: 1) to‘yga rozilik belgisi sifatida sovchilarga sovg‘a qilinadigan oq yoki och, ochiq rangli gazlama, ro‘mol, kiyim-kechak; 2) ko‘mish marosimiga, azaga kelganlarga bo‘lib beriladigan ro‘molchabop gazlama (O‘TIL-2, I; 559). Besh jildli izohli lug‘atda oqliq leksemasiga keltirilgan etnografik ma’nolarga qo‘shimcha **“kafan, kafanlik”** ma’nosi (O‘TIL-5, III; 180) ham berilgan. Yangilangan izohli lug‘atda umumiy etnografik leksemalarning **33 %** (66 o‘rinda)i polisemantik xususiyatga ega leksemalar anglatgan etnografik ma’no (ma’nolar) asosida hosil qilingan. Ushbu etnografik ma’nolarning yuzaga kelishida metafora, metonimiya kabi ko‘chimlar asos bo‘lgan. Shuni ham ta’kidlash kerakki, ushbu lug‘atda ikki va undan ortiq etnografik ma’no ifodalagan leksemalar miqdor jihatdan ikki jildli izohli lug‘atga nisbatan ko‘pchilikni tashkil etadi.

Yangi tahrirdagi (2006-2008) izohli lug‘atda leksemalarning polisemantik xususiyatlarini kengroq ochib berishga jiddiy e’tibor qaratilgan. **YO‘QLOV:** 1) shunday yurishda (borish-kelishda) olib boriladigan narsa (tugun, tog‘ora va sh.k.); 2) marhumlarni eslab aytiladigan (yig‘lanadigan) aza to‘rtliklari, shunday yig‘i (O‘TIL-5, II; 286). Shuningdek, **oq** (O‘TIL-5, III; 176), **to‘y** (O‘TIL-5, IV; 229), **quloqcho‘zma** (O‘TIL-5, V; 374) kabi leksemalar ham ikki va undan ortiq etnografik ma’noga ega ekani keltirib o‘tilgan.

Ikki jildli izohli lug‘atda diniy termin sifatida berilgan ayrim leksemalar yangi izohli lug‘atda etnografizm ekani ta’kidlangan. Xususan, **davra** – marhumning gunohlarini yuvish uchun, janozadan ilgari to‘planib o‘tkaziladigan marosim (O‘TIL-2, I; 204); **uch** – uchiga paxta o‘rab, yog‘lab, marhum arvohiga atab payshanba, juma oqshomlari yoqib qo‘yiladigan cho‘p (O‘TIL-2, II; 286) singari diniy tushuncha anglatuvchi leksemalar etnografizm deya ta’kidlangan. Biroq boshqa o‘rinlarda islom dini yoki undan avval yuzaga kelgan dinlardan saqlanib qolgan: **janaza, iftorlik, isqot, mavlud, mahr berish, motam, namoz, nikoh, payg‘ambar oshi, payshanbalik, pitro‘za, ro‘za, ta’ziya, fitr, qurbonlik, olov aylanish** va boshqa ko‘plab urf-odatlar, an’analar, irim-sirim nomlari bosh so‘z tariqasida aks ettirilgan bo‘lsa-da, lug‘atda etnografizm sifatida izohlanmagan.

Shuningdek, **oqkiyar** (O‘TIL-2, I; 558) dialekt deya izohlangan bo‘lsa, besh jildli izohli lug‘at (O‘TIL-5, III; 179)da etnografizm sifatida izohlangan.

Ikki jildli izohli lug‘atda etnografik tushuncha kasb etuvchi barcha til birliklari ham so‘zlik qilib sarlavhaga chiqarilmagan. Mana shunday o‘rinlarda bosh so‘zga tuzilgan lug‘at maqolasidan keyin shu leksema ishtirok etgan etnografik birikma (birikmalar)ni keltirish, ularni qisqacha izohlash usulidan foydalanilgan. Besh tomli izohli lug‘atda lug‘atga kiritilgan va ma’nolari belgilanib, izoh bilan ta’minlanuvchi ajratib yoziladigan yasama so‘z va turg‘un birikmalar ham lug‘atning so‘zligini tashkil etishi, lekin ular ma’lum prinsip asosida, bosh so‘zga tuzilgan lug‘at maqola-

si ichida berilishi[1] ta'kidlab o'tilgan. Bunda barqaror birikmalar bilan birga ajratib yoziladigan qo'shma (qo'shma fe'l shaklli) etnoleksemalar, so'z birikmasi yoki gap shaklidagi etnografizmlar ham misol tariqasida olingan.

Lug'atda etnografik ma'no ifodalovchi birikmalarni izohlashda **42 o'rin** (lug'atda keltirilgan etnografizmlarning **23.8 %**i)da ushbu usuldan foydalanilgan. Masalan, **mol** va **qiz** leksemalariga tuzilgan so'zlik maqolalaridan keyin shu leksemalar ishtirok etgan **mol yoyar** va **mol yig'ar** (O'TIL-2, I; 470)**; qiz oshi** va **qiz ko'rar** (O'TIL-2, II; 570) birikmalari etnografizm sifatida berilgan. Besh jildli "O'TIL"da **mol yoyar, mol yig'ar, qiz oshi, qiz ko'rar** birikmalari qo'shib yozilgan va izohli lug'atda bosh so'z sifatida sarlavhaga chiqarilgan, lug'at maqolasi tuzilgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, izohli lug'atlarda yuqorida keltirilgan etnografik tushuncha anglatuvchi birikmalar bilan bir xil qolipda bo'lgan **yil oshi** (O'TIL-5, II; 267), **maslahat oshi** (O'TIL-5, II; 551), **og'iz bog'lar** (O'TIL-5, III; 186), **yuz ko'rar** (O'TIL-5, V; 76) kabi birikmali etnografizmlar ajratib yozilgan. Ko'rinadiki, etnografik birikmalarni bosh so'z sifatida sarlavhada chiqarishda ham qat'iy prinsipga amal qilinmaydi. Xususan, etnoleksemalarning imloviy jihatdan barqaror emasligi, sohaga doir leksik qatlam tadqiqi talab darajasida ishlanmagani bu boradagi muammolarni yanada chigallashtiradi. Bu etnografik tushuncha ifodalovchi bir xil shaklli (grammatik, morfologik, sintaktik) birikmalarni izohli lug'atlarda berishda ham har xillikni keltirib chiqarmoqda.

Shunga qaramasdan, besh jildli izohli lug'atda sarlavhada izohlangan bosh so'z ishtirok etgan birikmali etnografizmlarni berishda ancha tejamkorlikka erishilgan. Ya'ni lug'atda keltirilgan umumiy etnoleksemalarning **17.5 %** (35 o'rinda)i birikmali etnografizmlar hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ayrim birikmalarning qo'shib yozilishi ularning struktur tuzilishiga ta'sir o'tkazdi. Ushbu birikmalarni izohli lug'atda sarlavhaga bosh so'z qilib izohlash imkonini berdi. Biroq erkin sintaktik munosabatga ega (so'z birikmasi va gap shaklidagi) birikmalarni izohli lug'atda berish qat'iy leksikografik tamoyilga asoslanishi lozim. Shuningdek, har ikki izohli lug'atda birikmali etnografizmlarni berishda ayrim juz'iy kamchiliklarni kuzatish mumkin. Ya'ni birikma tarkibidagi mustaqil lug'aviy ma'noga ega so'zlarning har ikkisiga tuzilgan lug'at maqolasida bir xil etnografik birikma keltirilgan va izohlangan. Besh jildli izohli lug'atning **"Lug'atning tuzilishi va undan foydalanish"** qismida etnografik birikmalar va ularning struktur jihatdan lug'atda berilishi haqida ma'lumot berilmagan. Turg'un iboralar haqida fikr yuritilar ekan, shu ibora tarkibida, albatta qatnashadigan (majburiy komponenti bo'lgan), shu iboraning shakllanishida asosiy so'z hisoblanuvchi so'zga tuzilgan lug'at maqolasida berilishi[2] ta'kidlangan. Ammo izohli lug'atda etnografik birikma shu birikma tarkibidagi har bir komponentni izohlashda takror uchraydi va izohlanadi. Masalan, **qalliq o'ynamoq** etnografizmi **qalliq** (O'TIL-5, V; 228) va **o'ynamoq** (O'TIL-5, V; 114) leksemalariga tuzilgan lug'at maqolalari ichida keltirilgan.

Lug'at maqolasining bosh so'zdan keyingi komponenti bosh so'zning etimologiyasi haqdagi ma'lumot. Etimologik ma'lumot qardosh bo'lmagan chet til so'zlariga beriladi[3]. Ikki jildli izohli lug'atdagi etnoleksemalar tahlili shuni ko'rsatdiki, etnografizmlarning **10.2** foiz (18 o'rinda)i arabiy, **13.7** foiz (24 o'rinda) i fors-tojikcha, **2** o'rinda arabiy+fors-tojikcha (yasama), **1** o'rinda mo'g'ulcha etnomadaniy o'zlashma leksemalardir. Ikki va besh jildli izohli lug'atlarda uchraydigan o'zlashma etnografik birliklar qiyosi quyidagi jadvalda batafsil berilgan (3-jadval).

3-jadval

Izohli lug'atlarda o'z va o'zlashgan qatlamga xos etnografik birliklarning berilishi

№	O'zbek tiliga o'zlashgan etnografik leksemalarning asosiy ob'ekti bo'lgan tillar	"O'zbek tilining izohli lug'ati" 2 jildli (1981)	"O'zbek tilining izohli lug'ati" 5 jildli (2006-2008)
1.	Arabcha etnografizmlar	10.2 % (18 o'rinda)	7.5 % (15 o'rinda)
2.	Fors-tojikcha etnografizmlar	13.7 % (24 o'rinda)	11.1 % (22 o'rinda)

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ўзбекистон миллий энциклопедияси 5-томлик, 1-том. – Тошкент, 2006-2008. – Б. 10.
[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ўзбекистон миллий энциклопедияси 5-томлик, 1-том. –Тошкент, 2006-2008. – Б. 13.
[3] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ўзбекистон миллий энциклопедияси 5-томлик, 1-том. –Тошкент, 2006-2008. – Б. 13.

3.	Arabcha+fors-tojikcha	1,1 % (2 o‘rinda)	1 % (2 o‘rinda)
4.	O‘zbekcha+fors-tojikcha	------	1 % (2 o‘rinda)
5.	Mo‘g‘ulcha	0.5 % (1 o‘rinda)	-----
6.	Inglizcha	-------	1 % (2 o‘rinda)
7.	O‘z qatlamga oid	73.1 %	78.2 %

Etnografizmlarning etimoni haqida aniq va to‘liqroq ma’lumot berish borasida besh jildli izohli lug‘atda samarali ishlar olib borildi. Ikki jildli izohli lug‘atda etimologik ma’lumot berilmagan ayrim o‘zlashma etnografik leksemalarga ham etimologik izoh berilgan: **zarkokil** [f. لکاکرذ - zarli gajak, kokil] (II; 138), **patir** [a. ریطف – oshirilmagan, ko‘ptirilmagan (non)] (III; 237), **salom** [a. مالسا - tinchlik, xavfsizlik; ko‘rishish, salomlashish] (III; 430), **tumor** [a. رامو ط – o‘rog‘liq xat; noma, yozuv] (IV; 188), **o‘kil** [a. لیکو - ishonchli, vakolatli shaxs] (V; 145) kabi.

Izohli lug‘atlarda etnografik leksema va birikmalarni berishda uslubiy va havola etuvchi qaydlarning etnografik so‘zlik ma’nosini izohlash, bosh so‘z yoki shu so‘z ishtirok etgan birikmaning tematikasini belgilash, keltirilgan ta’riflarda uchraydigan bir xillik va ortiqchalikdan saqlanishdagi o‘rni izohlandi.

Ikki jildli izohli lug‘atda keltirilgan bir guruh leksemalar ham yangilangan izohli lug‘atda etnografizm ekani ta’kidlangan. Masalan, **gul** (O‘TIL-2, I; 470), **darveshona** (O‘TIL-2, I; 209), **isiriq** (O‘TIL-2, I; 335), **kestirmoq** (O‘TIL-2, I; 382), **non** (O‘TIL-2, I; 510), **osh** (O‘TIL-2, I; 554), s**adr** (O‘TIL-2, II; 10), **tavanxona** (O‘TIL-2, II; 104), **tuf** (O‘TIL-2, II; 235), **uchunmoq** (O‘TIL-2, II; 288), **ushatmoq** (O‘TIL-2, II; 288), **chaqiriq** (O‘TIL-2, II; 359), **qirq** (O‘TIL-2, II; 583) kabi leksemalar lug‘atda mavjud bo‘lsa-da, etnografizm sifatida berilmagan. Besh jildli izohli lug‘atda ushbu leksemalar etnografik leksik qatlamga mansubligi ta’kidlanadi.

O‘zbek tili izohli lug‘atlaridagi etnografizmlarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatdiki, tilimizda mavjud etnografik leksik qatlamning leksikografik tadqiqi talab darajasida emas. Xalqimizning an’anaviy turmush tarzi, milliy qadriyatlari, urf-odatlari haqida ma’lumot beruvchi, tilimizning asl fonetik, semantik, grammatik xususiyatlarini o‘zida ko‘rsatib turuvchi etnografik birliklar, asosan, chekka hududlarda yoki ma’lum ijtimoiy guruhlar (keksalar, ayrim kasb egalari) nutqida saqlanib qolmoqda. Ularni lug‘atlashtirish tilimizning boy ma’naviy leksik merosini saqlab qolish bilan bir qatorda, etnoleksemalarni semantik, struktur, imloviy, grammatik jihatdan yanada batafsil o‘rganish uchun manba bo‘la oladi. Bu esa tilimizni agglyutinativ til sifatidagi asl qonuniyatini qayta ko‘rib chiqish, tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Lug‘at maqolasining eng asosiy komponenti izohlanuvchi birliklar ma’nosi (ma’nolari)ga beriladigan izoh[1] hisoblanadi. Lug‘atda so‘zlik sifatida sarlavhaga chiqarilgan barcha leksemalar singari etnoleksemalarga ham shu leksema ma’nosi (ma’nolari)ni ta’riflash, izohlash yoki boshqa leksemaning ma’nosiga havola, ishora qilish orqali izoh berilgan.

Izohli lug‘atlarda keltirilgan illustrativ misollar so‘zlarning turli ma’no qirralarini ko‘rsatishga, o‘z navbatida, til egasi bo‘lgan millatning dunyoqarashini namoyon etishga xizmat qiladi[2].

Ikki jildli izohli lug‘atdagi lug‘at maqolasi tarkibida uchraydigan illustrativ misollar o‘sha davr siyosiy, ijtimoiy, adabiy, ilmiy muhitini ma’lum darajada aks ettirib turadi. Shu bois ham davr o‘tishi bilan izohli lug‘at tarkibida ro‘y beradigan turli xil o‘zgarishlar mavjud izohli lug‘atnigina emas, balki unda berilgan illustrativ misollarni ham qayta ko‘rib chiqish zarurati borligini ko‘rsatadi.

Ikki va besh jildli izohli lug‘atlarni o‘z qatlam va etnomadaniy (etnografizmlar, dialektlar va h.k.) leksemalar qamrovi, jonli til sathida mavjud so‘zlar (birikmali, turg‘un birliklar) va ularning semantikasi, leksik birliklarning shakl va ma’no munosabati to‘liq ifodalanmagani, lug‘at maqolasi tarkibiy qismlarining qat’iy leksikografik tamoyillarga amal qilmasligi kabi xususiyatlariga asoslanib hali mukammal lug‘at deyish mushkul.

Kelgusida yaratiladigan izohli lug‘atlarda etnografik birliklarni berishda, avvalo, ularning imlosini qat’iy ishlab chiqish, o‘zbek tili etnografizmlarining tematikasi ko‘lamini belgilash, izohli lug‘atlarda etnografizmlarning ma’nolarini aniq ifodalashda etnoleksemalarning polisemantik va omonimik xususiyatini batafsil yoritib berish borasida ilmiy-nazariy jihatlar hisobga olinishi shart.

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ўзбекистон миллий энциклопедияси 5-томлик, 1-том. – Тошкент, 2006-2008. – Б. 17.

[2] Қўзиев У. Ўзбек тилидаги изоҳли луғатларда ўзлашма сўзлар: Фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD) дис. автореферати. – Фарғона, 2018. – Б. 18.

Rezyume. Ushbu maqolada izohli lug‘atlarda keltirilgan etnografik birliklar qiyosiy, etimologik, statistik, semantik-struktur jihatdan tahlil qilingan. Milliy urf-odat, marosim, an’analar, xalqning qadimiy turmush tarzi bilan bog‘liq etnomadaniy predmet nomlarini izohli lug‘atlarda aks ettirish usullari izohlangan.

Resume. In this article, the ethnographic units presented in explanatory dictionaries are analyzed from a comparative, etymological, statistical, semantic-structural point of view. Methods of reflecting the names of ethnocultural subjects related to the national customs, rituals, traditions, ancient way of life of the people in explanatory dictionaries are explained.

Резюме. В данной статье этнографические единицы, представленные в толковых словарях, анализируются со сравнительной, этимологической, статистической, семантико-структурной точки зрения. Объясняются способы отражения в толковых словарях названий этнокультурных предметов, связанных с национальными обычаями, обрядами, традициями, древним бытом народа.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2024; 12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

HAMID OLIMJON IJODIDA SO‘Z SEHRI

Raximova Umida Djumayevna,
Termiz davlat universiteti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi v.b.dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

H.Olimjon mohir so‘z ustasi. U so‘z tanlash va uni o‘z o‘rnida qo‘llashga alohida ahamiyat bergan. Hamid Olimjonning ijodkor sifatidagi mahoratini belgilovchi muhim jihati umumxalq tili vositalaridan nutqiy jarayonga mos foydalanganligidir. H.Olimjon – keng qamrovli ijodkor. Uning asarlari mazmunan takrorlanmasligi, ifoda jihatdan originalligi, xalqona usuli, til vositalarining xilma-xilligi va o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Shoir asarlarida xalq og‘zaki ijodi an’analarini omuxta qiladi. Bu uning asarlari tilining xalqchilligi, sodda, ravonligi, badiiy jihatdan mukammalligi, jozibadorligini ta’minlovchi bosh omildir.

Ma’lumki, nutqda so‘zdan to‘g‘ri foydalanish muloqot jarayonining mazmundorligi, samaradorligini belgilaydi. Badiiy matnlarda, xususan, she’riyatda so‘zdan maqsadga muvofiq foydalanish badiiy-estetik ifodaning muhim sharti hisoblanadi. Shunga ko‘ra so‘z tanlash, undan nutqiy vaziyatga mos holda foydalanish ijodkorning so‘z qo‘llash mahoratini belgilabgina qolmay, nazmning estetik jihatdan takomiliga zamin yaratadi. Umumxalq tilining boy imkoniyatlaridan san’atkorona foydalanish evaziga o‘ta ta’sirchan, o‘zbek tilining tovlanishlarini namoyon etgan shoir “O‘zbekiston” she’rida vatanni madh etar ekan, uni yosh kelinga, shu yurtga obi hayot taratuvchi ikki daryoni esa go‘zal kelinning kokillariga qiyoslaydi: *Chiroylidir go‘yo yosh kelin, Ikki daryo yuvar kokilin*[1].

H.Olimjon nafaqat ma’nosi ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan so‘zlardan, balki shu so‘zlarning umumxalq uchun noma’lum bo‘lgan ma’nolaridan ham unumli foydalangan holda badiiy mukammal, mazmunan teran misralar yaratgan. “O‘zbekiston” she’ridagi *Bir parcha o‘t bo‘lib bunda kun, Paxtasiga ishlaydi har kun* misralaridagi *bir parcha o‘t* birikmasi, *kun* va *har kun* so‘zlari shoirning so‘z qo‘llashdagi mahorati namunasidir. Birinchi misradagi *kun* so‘zi oddiy so‘zlashuvga xos bo‘lib “quyosh” ma’nosida qo‘llanilgan bo‘lsa, *har kun* so‘zi “haftaning kuni” mazmunida ishlatilgan. *Bir parcha o‘t* birikmasining quyoshning

[1] Ҳамид Олимжон. Асарлар мажмуаси. Беш томлик. 5-том. – Тошкент, 1972. – Б. 56.